

**“O‘zmetkombinat” AJning 2025-yil yakuni bo‘yicha foyda va zararlar
taqsimoti hamda dividendlar to‘lovi bo‘yicha
MA’LUMOT**

2025-yil yakuni bo‘yicha “O‘zmetkombinat” AJ sof foydasi 284 061 318 000 so‘mni tashkil etgan.

“O‘zmetkombinat” AJ aksiyadorlarining 2026-yil 30-iyundagi 74-son yillik umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra “O‘zmetkombinat” AJning 2025-yil yakuni bo‘yicha sof foydasini quyidagi tartibda taqsimlash bo‘yicha qaror qabul qilingan:

- 2025-yil yakuni bo‘yicha zaxira fondini shakllantirish uchun - 14 203 065 900 so‘m yoki sof foydaning 5 foizi;

- Dividendlar kapitalizatsiyasi – 249 630 958 068 so‘m (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaroriga asosan);

- Dividend to‘lovlari uchun – 20 227 294 032 so‘m, shundan, oddiy aksiyalar bo‘yicha – 17 282 056 632 so‘m, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha – 2 945 237 400 so‘m. Bunda, soliqlarni inobatga olgan holda bir dona oddiy aksiya uchun nominal qiymatining 7,5 foizi, ya’ni 378,17 so‘m, bir dona imtiyozli aksiya uchun nominal qiymatining 6 foizi, ya’ni 300 so‘m etib belgilangan.

Dividendlarni to‘lash qaror qabul qilingan kundan e’tiboran oltmish kundan kechiktirmay, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirish belgilangan.